



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-NOYABR


NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- dekabr holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 422 tani tashkil etdi.



Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 418 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 29,4 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2023- yil 1- dekabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Hududlar kesimida




Yillar kesimida qurilish tashkilotlar soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 233 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 16,4 %), Qiziltepa tumanida – 214 ta (15,0 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-noyabr oylari uchun)

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, Navoiy viloyatida jami 6 175,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 80,3 %ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 14,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 4,9 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,4 % i yoki 4 905,3 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 011,6,0 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.

20,6 %

1 011,6
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 097,2 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 42,8 % ni tashkil etdi.

42,8 %

2 097,2
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 796,5 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 36,6 % ni tashkil etdi.

36,6 %

1 796,5
mlrd. so‘m



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Navoiy shahri (1 221,4 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (1 000,6 mlrd. so'm), Karmana tumani (570,8 mlrd. so'm) va Navbahor tumani (544,5 mlrd. so'm) qayd etildi.


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	6 175,9	106,6	4 905,3
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	1 264,2	96,4	1 221,4
Zarafshon	544,2	64,1	221,9
G'ozg'on	17,9	111,2	6,9
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	108,3	137,7	83,4
Qiziltepa	1 204,8	99,2	1 000,6
Navbahor	555,9	107,2	544,5
Karmana	675,0	101,9	570,8
Nurota	865,3	192,5	486,7
Tomdi	293,3	378,4	195,5
Uchquduq	113,2	115,0	83,4
Xatirchi	533,8	102,7	500,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **4 961,1 mlrd. so'm.**




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 18,9 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 15,4 % punktga kamayib, 41,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,7 % punktga ko'payib, 40,0 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun:

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Karmana tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 87,4 % i), Navbahor tumani (85,0 %) va Xatirchi tumani (84,8%) da kuzatildi.



Karmana tumani
87,4 %




Navbahor tumani
85,0 %



Xatirchi tumani
84,8%

**2023- yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha**

Fuqarolik obyektlarini qurish- 991,3 mlrd. so'm.




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,0 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,7 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,0 % (5,7 % punktga kamaydi).

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 31,0 % i), Konimex tumani (27,9 %) va Uchquduq tumani (20,4 %)da kuzatildi.



31,0
G'ozg'on shahar




27,9 %
Konimex tumani



20,4 %
Uchquduq tumani

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- **303,5 mlrd. so'm.**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 17,6 % punktga kamaydi va 6,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 93,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 15,6 % punktga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahar(hududda bajarilgan qurilish ishlarining 21,4 % i), Konimex tumani (9,7 %) va Uchquduq tumanida (9,7 %) kuzatildi.



21,4 %

G'ozg'on shahar



9,7 %

Konimex tumani



9,7 %

Uchquduq tumani

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

93,0 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –


109,5 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

112,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 161,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,2 % ga kamayib, 18,8 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. so'mda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,1 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil etgan holda 3 030,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 32,1 % ni yoki 1 984,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi. Shundan 1 170,9 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 625,6 mlrd. soʻmni va 123,7 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 187,7 mlrd. soʻmni va 114,6 % ni tashkil etdi.

—◆— Yanvar-noyabr 2023 yil % da



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-noyabr oylaridagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 402,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 773,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,5 % va 93,5 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun:



Nodavlat mulkchilikidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush G'ozg'on shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 100 % i), Xatirchi tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 96,4 % i) va Navbahor tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 96,2 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. (79) 223-54-73